

**IBTIDOIY SO'NGGI URUG' JAMOASINING MODDIY MADANIYATI
(KALTAMINOR VA JOYTUN MADANIYATLARI MATERIALLARI
ASOSIDA)**

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti 1-kurs talabasi:

Baxtiyorov Ozodbek

Ilmiy rahbarlar: Arxeologiya va etnologiya kafedrasida dotsenti

Bababekov Akbar Davurbayevich,

Arxeologiya va etnologiya kafedrasida o'qituvchisi

Haydarov Zuxriddin Boratali o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqolada old tarix davridagi so'ngi urug' jamoasi moddiy madaniyati chuqur tahlil qilinadi. Unda ushbu davrga oid arxeologik topilmalar, uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari va turar joylarning o'ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, texnologik taraqqiyoti va ma'naviy dunyosi haqida muhim ma'lumotlarni ochib beradi. Maqola so'ngi urug' jamoasida shaklangan kundalik faoliyat turlarini yoritib va shu asosda ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: So'ngi urug' jamoasi, moddiy madaniyat, arxeologiya, ijtimoiy tuzilma, mehnat qurollari, qadimgi tarix, madaniy o'zgarishlar, Kaltaminor, Joytun.

Kirish

Insoniyat jamiyatining rivojlanish bosqichlarini tushunishda ibtidoiy jamoa tuzumidan ilk sinfiy jamiyatlarga o'tish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'ngi urug' jamoasi bosqichi ushbu transformatsiyaning muhim poydevori bo'lib, unda moddiy madaniyatning o'rni beqiyosdir. Moddiy madaniyat nafaqat o'tmishdagi jamiyatlarning iqtisodiy faoliyati, texnologik yutuqlari va ijtimoiy tuzilishini, balki ularning ma'naviy dunyosi, e'tiqodlari va dunyoqarashini ham bevosita aks ettiruvchi manba hisoblanadi. Markaziy Osiyo hududi qadimdan turli madaniyatlarning chorrahasi bo'lib kelgan va bu yerda so'ngi urug' jamoalari davri qadimgi davlatlar va shahar sivilizatsiyalarining shakllanishiga zamin yaratgan. Shu bois, ushbu davr moddiy madaniyatini chuqur o'rganish mintaqa tarixining uzviy qismi bo'lib, zamonaviy O'zbekiston madaniyati va o'ziga xosligining tarixiy ildizlarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Dolzarb vazifalar doirasida, milliy tarixiy merosimizning muhim qismi bo'lgan so'ngi urug' jamoasi moddiy madaniyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbliigi, shuningdek arxeologik topilmalarning doimiy ravishda yangilanib borishi va ularni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta talqin qilish



zarurati bilan ham belgilanadi. Moddiy madaniyat elementlari orqali o‘tmishdagi ijtimoiy munosabatlar, mehnat taqsimoti, jinslararo rollar va hatto diniy marosimlarni tiklash imkoniyati mavjud bo‘lib, bu esa o‘tmishni yanada to‘liqroq tasavvur qilishga yordam beradi. Mazkur tadqiqot, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy evolyutsiyasini global kontekstda tushunishga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Olimlar urug‘chilik davrini umumiy uch guruhga bo‘lib ya‘ni; ilk urug‘ jamoasi, rivojlangan urug‘ jamoasi va so‘ngi urug‘ jamoasi davriga bo‘lib o‘rganishadi . So‘ngi urug‘ jamoasi neolit davridan boshlanib ilk temir davrigacha bo‘lgan katta tarixiy bosqichni o‘z ichiga oladi.”So‘ngi urug‘ jamoasi bosqichi oykumenalarning ma‘lum bir qismida ilk dehqonchilik yoki dehqonchilik – chorvachilik hamda yuqori darajada ixtisoslashgan o‘zlashtirish xo‘jaligining malakali ovchi, baliqchi va termachi va boshqa ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichning ahamiyatli tomoni shundaki qaysiki qayerda qulay tabiiy sharoit mavjud bo‘lsa , o‘sha joylarda xo‘jalikning birinchi shakli ikkinchisini yuzaga keltirganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning paydo bo‘lishi ibtidoiy iqtisodiyotning ulkan yutug‘i, bo‘lib kelgusidagi insoniyatning ijtimoiy – iqtisodiy tarixidagi yutuqlarga asos bo‘lgan, muntazam ortiqcha, keyinchalik qo‘shilgan qiymatdagi maxsulotlar olish uchun muxim sharoit yaratildi .Taraqqiyot davomida aynan ortiqcha mahsulotning olinishi, ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning rivojiga ibtidoiy tartibning buzilishiga va sinfiy jamiyatning shakllanishiga olib keldi . Mazkur burilish vaqtining aynan neolit davrida sodir bo‘lishi hamda ingliz arxeologi Gordon Chayldning ta‘rificha “neolit (yoki agrar) inqilobi” nomi bilan tarixga kirdi. Yuqori darajada ixtisoslashgan malakali ovchilik , baliqchilik va termachilik xo‘jaligi kelgusidagi taraqqiyot uchun ham ahamiyatli imkoniyatlar ochib berdi . Ammo qayd etish lozimki, aksariyat so‘nggi urug‘ jamoasi xo‘jaligining cheklangan tabiiy resurslarga egaligi ularning ayrimlarigina ilk sinfiy darajagacha ko‘tarila olishga imkon bergan.”[1.4]

“Neolit inqilobi bu shart sharoitlarning eng muhimi bo‘lib , xuddi shu davrda Yer yuzining qulay hududlaridan termachilikdan dehqonchilikka ,ovchilikdan esa chorvachilikka o‘tila boshlandi.”[2]. Bu davrda dehqonchilik va chorvachilik rivojlanib, sopol idishlar geometrik naqshlar va inson hamda hayvon tasvirlari bilan bezatilgan. Shunday qilib, so‘nggi urug‘ jamoasining moddiy madaniyatini har tomonlama tahlil qilish orqali uning tarixiy o‘rnini va umumiy xususiyatlarini o‘rganish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

So‘nggi urug‘ jamoasining moddiy madaniyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy



adabiyotlar tahlili, insoniyat tarixidagi ushbu muhim o'tish davrining murakkab qirralarini tushunish uchun fundamental ahamiyatga ega. Neolit va eneolit davri, ovchilik va terimchilik xo'jaligidan dehqonchilik va chorvachilikka o'tgan jamoalar moddiy madaniyati ifodasini o'zida mujassam etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moddiy madaniyat artefaktlari nafaqat texnologik taraqqiyotni, balki ijtimoiy tuzilish, ilk temir davrigacha davom etgan. Hatto ma'naviy e'tiqodlarni ham aks ettiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Bundan tashqari urug'chilik madaniyatini or'ganishda: Mo'minov.O, Bobobekov.A, Narziyev.N, Atadjanov.Sh, Ashirov.A kabi olimlarning Ilmiy ishlari va bir qator o'quv qo'lanmalaridan foyalanildi.[1.] [2.] [3.]

Markaziy Osiyo hududida qadimiy moddiy madaniyatni o'rganishda professor R. X. Sulaymonovning paleolit davriga oid tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Uning Obirahmat yodgorligidagi tizimli qazishmalari va madaniy qatlamlarni sinchkovlik bilan o'rganishga qaratilgan ishlari, arxeologik qazish uslubiyotini va topilmalarni tahlil qilishni sezilarli darajada takomillashtirgan. Professor Sulaymonovning Ya. G. G'ulomov, A. P. Okladnikov va M. M. Gerasimov kabi mashhur arxeologlar bilan hamkorligi uning ilmiy yondashuvini shakllantirib, mintaqaning qadimiy o'tmishini tushunish uchun yangi asoslar yaratgan [7]. Garchi uning asosiy ishlari paleolitga qaratilgan bo'lsa-da, bu tadqiqotlar keyingi neolit va eneolit davrlarining moddiy madaniyatini o'rganish uchun mustahkam metodologik baza yaratgan.

Neolit davri (mil. av. 6-3 ming yilliklar) moddiy madaniyatida "Neolit inqilobi"ning bevosita aksini ko'rish mumkin. Bu davrda tosh asboblari yasash texnikasi sezilarli darajada rivojlanib, burg'ulash va sayqallash kabi murakkab usullar keng qo'llanilgan. Bu esa dehqonchilik va chorvachilik ehtiyojlari uchun yanada samaraliroq asboblari yaratish imkonini bergan. Kulolchilikning ixtiro qilinishi moddiy madaniyatda tub burilish yasagan. Sopol idishlari nafaqat oziq-ovqatni saqlash va pishirish uchun, balki suv tashish va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun ham muhim bo'lgan, bu esa o'troq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan. Yigiruv va to'quvchilikning paydo bo'lishi kiyim-kechak va boshqa mato mahsulotlarini ishlab chiqarishda yangi imkoniyatlar ochgan, bu esa jamiyatning moddiy farovonligini oshirgan [3].

Turar – joylar va aholi manzillari neolit davri moddiy madaniyatining yana bir muhim qirrasidir. Markaziy Osiyoda Joytun madaniyatiga oid o'troq dehqonchilik qishloqlari (150-180 kishilik) paydo bo'lgan bo'lsa, Kaltaminor madaniyati (100-120 kishilik) ovchi-baliqchilarning katta jamoalarini birlashtirgan yirik jamoaviy turar joylar bilan ajralib turadi [3]. Bu ikki madaniyatning turli xil iqtisodiy strategiyalari ularning moddiy madaniyatida, xususan, turar joylar tuzilishi va asbob-uskunalar to'plamida yaqqol namoyon bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan jamiyatlarda



doimiy turar joylar, don saqlash uchun chuqurlar va tegirmon toshlari kabi ashyo ko'proq uchrasa, ovchi-baliqchilar jamoalarida ov va baliq ovlashga mo'ljallangan maxsus asboblardan ustunlik qilgan. Shuningdek, chaqmoqtoshga bo'lgan ehtiyojning ortishi ixtisoslashgan konchilarning paydo bo'lishiga olib kelgan, bu esa moddiy madaniyatning yanada murakkablashganini va mehnat taqsimotining rivojlanganini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi VIII-VI mingyilliklarda Old Osiyo olkalarida sodir bo'lgan voqea-dehqonchilik va chorvachilikka o'tish ibtidoiy jamoa tuzumining barham topishi uchun kishilik oldida dastlabki yo'lni ochib berdi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, binobarin dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi natijasida xo'jalikning muqarrarligi kuchaydi. Aholi darajasi ko'tarilib, sotsial strukturasi murakablashdi hamda ibtidoiy kishilarning psixologiyasida ham o'zgarish sodir bo'ldi. Eng muhimi ishlab chiqarish kuchlarining ajralmas qismini tashkil etuvchi mehnat qurollari takomillashdi.[2]

Eneolit davrida dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlangan, bu esa iqtisodiy barqarorlikni oshirgan. Sopol idishlar ishlab chiqarish ham takomillashib, ular geometrik naqshlar, inson va hayvon figuralari bilan bezatilgan. Bu bezaklar nafaqat estetik qadriyatga ega bo'lgan, balki jamiyatning ma'naviy dunyosi, e'tiqodlari va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini ham aks ettirgan. Ayniqsa, ko'plab pishirilgan loydan yasalgan ayol haykalchalarining topilishi diqqatga sazovordir. Bu haykalchalar ma'budalar sifatida talqin qilinib, eneolit jamiyatlarida ona urug'chilik tuzilmasining saqlanib qolganligini ko'rsatuvchi muhim dalil sifatida qaraladi [2]. Ushbu ashyo moddiy madaniyatning nafaqat amaliy, balki ramziy va diniy funksiyalarga ham ega bo'lganligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi urug' jamoasining moddiy madaniyati insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik evolyutsiyasining murakkab va dinamik jarayonini aks ettiradi. Neolit davrining "inqilobiy" o'zgarishlari va enolit davrining o'tish xususiyatlari, asbob-uskunalar, turar joylar, kulolchilik va san'at asarlari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Bu tadqiqotlar nafaqat qadimiy jamiyatlarning kundalik hayotini, balki ularning ijtimoiy tuzilishini, e'tiqodlarini va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ham chuqur tushunishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

So'nggi ibtidoiy jamoa bosqichida ham ilk ibtidoiy jamoa bosqichida bo'lgani kabi jamoaviy mehnatni roli katta bo'lgan. O'rmonlarni tozalash, chorvani boqish samarali ovchilik va baliqchilik xo'jaligini yuritish albatta bir oilaning qo'lidan kelmagan, shu



Learning and Sustainable Innovation

sababli jamoaviy mehnat va yerga jamoaviy egalik o'z ta'sirini saqlab turgan. Keyinchalik so'nggi urug' jamoasi bosqichi oxirlariga kelib ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi mazkur prinsiplarning buzilishiga olib keldi. yer uzoq vaqt jamoa mulki sifatida saqlanib kelinganligi Yangi Gvineya papuaslari misolida ham o'z aksini topgan. Ularda yer avloddan avlodga o'tish shart hisoblangan.[1.6]

Tadqiqotning nazariy asosi madaniy materializm va arxeologik nazariyalar sinteziga tayanadi. Bu yondashuv moddiy madaniyatni jamiyatning iqtisodiy asoslari, texnologik imkoniyatlari va ijtimoiy tuzilishining bevosita aks ettiruvchisi sifatida ko'rishga imkon beradi. "Neolit inqilobi" tushunchasi va uning moddiy ashyo ifodasi asosiy tahlil obyekti bo'ladi. Metodologik jihatdan, tarixiy-qiyosiy va tizimli yondashuvlar qo'llaniladi. Tarixiy-qiyosiy metodologiya neolit va eneolit davrlarining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, Markaziy Osiyo hududidagi turli madaniyatlarning (Joytun va Kaltaminor) moddiy madaniyatidagi farqlar va o'xshashliklarni aniqlashga yordam beradi [3]. Tizimli yondashuv moddiy madaniyat elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va ularning jamiyat faoliyatidagi rolini tushunishga xizmat qiladi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayoni asosan mavjud arxeologik hisobotlar, monografiyalar va ilmiy maqolalarni chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Xususan, Markaziy Osiyo hududidagi neolit va eneolit davrlariga oid asosiy arxeologik yodgorliklardan topilgan ashyo (tosh asboblari, sopol idishlar, metall buyumlar, turar joy qoldiqlari, bezaklar va san'at asarlari) haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Professor R. X. Sulaymonovning paleolit davri bo'yicha tizimli qazishmalari va madaniy qatlamlarni sinchkovlik bilan o'rganishga qaratilgan metodologiyasi, garchi bevosita neolit va eneolitga qaratilmagan bo'lsa-da, ushbu tadqiqot uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Uning topilmalarni tahlil qilish va arxeologik uslubiyotni takomillashtirishdagi ishlari keyingi davrlar moddiy madaniyatini o'rganishda standartlarni belgilab bergan. Katta Tuzkon, Sarazm, Joytun va Kaltaminor kabi muhim arxeologik joylarning qazish materiallari asosiy ma'lumot manbalari sifatida xizmat qiladi, bu esa turli madaniyatlarning moddiy ifodalarini solishtirish imkonini beradi [2, 3].

Ma'lumotlarni tahlil qilishda tipologik, funksional va kontekstual tahlil usullari keng qo'llaniladi. Tipologik tahlil tosh asboblari, sopol idishlar va boshqa ashyo shakli, ishlab chiqarish texnikasi va bezak xususiyatlarini tasniflash hamda ularning vaqt o'tishi bilan evolyutsiyasini kuzatishga qaratilgan. Bu neolit davrida tosh asboblari texnikasining rivojlanishini va eneolitda misdan foydalanishni o'z ichiga oladi [3, 2]. Funksional tahlil har bir ashyo kundalik hayotdagi amaliy maqsadini aniqlashga yordam beradi. Qiyosiy tahlil topilmalarning arxeologik qatlamdagi joylashuvi, boshqa



artefaktlar bilan aloqasi va aholi punktlari tuzilishi bilan bog'liqligini o'rganib, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatini ochib beradi. Masalan, sopol idishlardagi geometrik naqshlar va hayvon figuralari, shuningdek, loydan yasalgan ayol haykalchalari jamiyatning e'tiqodlari, ramziy dunyosi va ijtimoiy tuzilishi (ona urug'chilikning saqlanib qolganligi) haqida qimmatli ma'lumotlar beradi [5].

Bundan tashqari, moddiy madaniyat elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tizimli yondashuv qo'llaniladi. Turar joylarning tuzilishi, asbob-uskunalar to'plami va iqtisodiy faoliyat turlari (dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, baliqchilik) o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Masalan, Joytun madaniyatining o'troq dehqonchilik qishloqlari va Kaltaminor madaniyatining ovchi-baliqchilar jamoalari moddiy madaniyatidagi farqlar ularning iqtisodiy strategiyalarining bevosita natijasi sifatida ko'rib chiqiladi [3]. Ushbu tadqiqotda arxeologiya, antropologiya va tarix fanlarining integratsiyalashgan yondashuvi qo'llaniladi, bu moddiy ashyo texnologik, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy jihatlarini chuqur tushunishga imkon beradi. Iqtisodiy asoslar, tirikchilik strategiyalari, turar joylar, asbob-uskunalar, kiyim-kechak, bezaklar, san'at, savdo va almashinuvga oid ma'lumotlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinib, moddiy madaniyatni kompleks baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqotdagi qiyinchiliklar asosan qadimiy davrlarga oid ma'lumotlarning uzuq-yuluq ekanligi va arxeologik topilmalarning talqinida subyektivlik xavfi mavjudligidadir. Ko'pgina ashyoning asl maqsadi va ramziy ahamiyatini aniqlash qiyin kechishi yuqoridagi xavfni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlar va arxeologik dalillarni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali so'nggi urug' jamoasining moddiy madaniyatiga oid ishonchli xulosalar chiqarishga intildik. Ushbu metodologiya so'nggi urug' jamoasi moddiy madaniyatining umumiy xususiyatlari, insoniyat tarixidagi o'rni va keyingi davrlar rivojlanishiga ta'sirini yoritishga xizmat qiladi. Natijada yaxlit umumiy ma'lumotga ega bo'lgan so'ngi urug'chilik xaqidagi boy ma'lumotlar bir joyga toplandi.

Xulosa

So'nggi urug' jamoasining moddiy madaniyati insoniyat tarixidagi tub o'zgarishlar davrini, ya'ni ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o'tish jarayonini yaqqol aks ettiradi. Bu davrda kulolchilik, to'quvchilik va tosh asboblardan yasash texnikasining takomillashuvi kabi muhim innovatsiyalar jamiyatning iqtisodiy asoslarini mustahkamlab, xom g'isht, guvala, chimlardan tiklangan sun'iy turar – joylar o'troq turmush tarzining shakllanishiga zamin yaratdi. Misdan foydalanishning boshlanishi esa texnologik taraqqiyotning yangi bosqichini belgiladi. Moddiy ashyo, jumladan, turar – joylar, asboblardan va san'at namunalari orqali qadimiy jamiyatlarning ijtimoiy



tuzilishi, e'tiqodlari va madaniy amaliyotlari haqida qimmatli ma'lumotlar olinadi. Ushbu davr moddiy madaniyati keyingi sivilizatsiyalar rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilganligi albatta bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Mo'minov.O, Bababekov A Inson evolyutsiyasi va old tarix, (o'quv qollanma) - Toshkent "Inovatsiya" -Ziyo.2020 -B.186-187
- [2] Narziyev.N Tarixiy Antropologiya (o'quv qo'llanma) –Toshkent “Inovatsion rivojlanish matbaa uyi”2020 -B. 145-148.
- [3] Ashirov. A , Atadjanov. A Etnalogiya - Toshkent Iqtisod-Moliya .2008 -B.127-138.
- [4] .Kabirov. A “Ibtidoiy jamiyat tarixi”(ma'ruzalar matni) -Toshkent, 2004.
- [5] .Kosven.M.O Ibtidoiy Madaniyat tarixidan ocherklar -Toshkent. “ O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti “, 1960. B.138-149.
- [6]. Алексеев В П , Першиц А,И История первобытного общества Москва, «Высшая школа» 2004, С.145-150.